

Lotin alifbesi uchun kurash

Lotin alifbosi uchun kurash turk xalqlari orasida keng o‘rinni olgan edi. Qofqaziyadagi birmuncha viloyat va jumhuriyatlarda lotinchalik kuchaydi, 22 nchi yildan beri Ozarbayjonda uni amalga oshirib keldilar. Qofqaziyadan boshqa turli Shimoliy turk sho‘ro jumhuriyatlari va bizning O‘zbekistonda ham ko‘pdan bu masala ko‘tarildi. Masala yolg‘iz majlisda suylash, matbuotda yozishish bilan bo‘lsada amaliy bir chora ko‘rilmagan edi: undan ortiq bu to‘g‘rida uzil-kesil bir qarorda yo‘q edi. Bu masala turkiyot quroltoyi tomonidan g‘ana qatiy suratda xal qilindi, bunda butun turk jumhuriyatlar bu xususda uzil-kesil javoblarini berdilar. Masala ustida faoliyat kuchaydi. Turkiyot qurultoyi masalani jiddiy tekshirdi va “arab alifbosini oradan ko‘tarishga vaqt keldi” mazmunida javob berdi. YA’ni bu alifboning yaramaslig‘i ko‘rsatildi va qulay alifbo tuzush yoqlandi. Xozir ba’zi bir joylarda bu xususda qizg‘in muzokara bormoqda, ikkinchi yoqdan bu alifboni amalga oshirish jiddiy tus olmoqdadir. SHo‘ro ittifoqdagi turk xalqaro orasida borg‘an bu masala to‘g‘risida sho‘ro chegarasidan tashqaridagi xalqlar orasida ham xarakat yo‘q emasdir. Turkiy matbuotida yaqin kunlardan boshlab bu masala ko‘tarilganidek bo‘ldi. Xatto so‘ngi xabarlarga ko‘ra Turkiya lotin alifbosini qabul emas. Har xolda shuni ham aytmak kerakki Eronda, xususan Turkiyada bu yo‘lda eskidan ham xarakat yo‘q emas edi. Turklarda lotin bo‘lmasada arab xarflarini (alifbosini) o‘zgartirish tajriba qiling‘on edi. Natijada hech narsa chiqmadi va arabni isloh qilishning qiyinligi tasdiq etildi.

Mana yuqorida yozilganlar bizga ko‘rsatadir kim, arab alifbosi chindan ham o‘limga mahkumdir. Nima uchun arabdan lotinga o‘tish kerak.

Shu so‘roqqa qisqa qilib shunday javob beramiz:

1. Arab alifbosi turk tilidagi tovushlarning shaklini tamomila bera olmaydir.
2. Arab alifbosi texnika tomonidan lotindan quyida turadir. Arabda nuqtalar, alomatlar, bosh o‘rta va so‘nggi xarflar bordir. Lotin esa bulardan uzoqdir. Masalan: arab xarflari shunday bo‘lganidan matbaa ishida qiyinlik tug‘diradi.

Aytaylik bir Yevropa muratibiy bir soatda bir ming yuztadan ortiq xarf tersa, sakkiz soatda 9 mingdan ortiqroq xarf tera oladir. Xolbuki musulmon murattibi bir soatda 9 yuzdan ortiq xarf tera olmaydir. Demak shu sakkiz soat orasida yevropali naburshichining musulmon naburshichinikidan 2 mingga yaqin ortiq terar ekan. Buning texnika tomonidan boshqa iqtisodiy tomonini xisoblasak qancha bo‘lur.

3. Arab alifbosi o‘qitish, o‘rganish ishida lotindan ortda turgani, texnika tomonining buzuqligi ustiga yerlilashtirish ishida ham to‘sinqilik qiladir. Masalan, yozuv mashinalari, stenografiya, telegraf va shunga o‘xshashlar. Bularning insonlarning aloqasida katta ro‘li bordirki, bunga shubha yo‘q. Bularning arab alifbesi bilan o‘zlashtirishda texnika qilinganlari kam emasdир.

Mana shu yuqorida aytilgan xususiyatlar arab xarfidagi nuqsonlardirki, bularni arab xarfini isloh qilish bilan ham yo‘qotib bo‘lmaydir.

Isloh

Turkiston qurultoyida Tatariston vakillari arabni saqlab, uni isloh etishning yangi rasuli bo‘lib chiqdilar. Arabning yaramaslig‘ini tasdiq etib shuning uchun yangi yildan buyon uni isloh etib kelayotganlarni ham aytadilar. Faqat 50 yildan buyon isloh eta boshlag‘on bo‘lsalarda hali ham isloh etmagan desak bo‘ladur. Qurultoyda arabchilar maxsus doklad qilg‘on bo‘lsalarda muvaffaqiyat qozonmadi. Arabchilar yengildi. Lotin foydasiga yuz kishi tovush bersa arab foydasiga 5 kishi qo‘l ko‘tardi. Bu to‘g‘rida Tataristonda qizg‘in muzokaralar bo‘ldi. Hozir ham bo‘lmoqdadir. Endi so‘zni uzaytirib o‘tirish yaramaydi. So‘zlab o‘tirish foydasizdir. Yolg‘iz shuni aytaylikim, arabni tuzatish bilan uni lotindan qulayroq qilib bo‘lmaydir. Yuqorida aytilgan nuqsonlar bu xarflarning “tabiatida” bordir. Isloh bilan yozuvlarni qiyinliqdan ozod qila olmaymiz. Shuning uchun bir yo‘l borki unda lotinni amalga oshirish va lotin asosida yangi alifbo tuzishdir. (Lotin asosida yangi alifbo tuzish to‘g‘risida yaqinda Maorif komissarlig‘i tomonidan ilmiy bir majlis chaqirilib, turli loyihalar tekshirilib bir chora ko‘rilguvsidir)

Tuzilgan alifboni ommaga oshirish

Masalaning qiyin joyi yangi tuzulguvsi alifboni ommaga oshirishdir. Lekin biz o‘ylaymizki, to‘g‘ri yo‘l, o‘ngg‘ay usul tuzilganidan keyin uni amalga oshirishga yangilik tug‘uliur. Shuning uchun ham usul ishslash kerakdir.

Shubha yo‘qdirkim, eng avval Maorif maydonida turg‘on o‘qituvchilar bu alifboni o‘rganishga kirishurlar. Butun tashkilotlar ham tashkilotlarda buni o‘rgatish uchun chora ko‘rular. Yolg‘iz faoliyat kerak. Har bir qishloq o‘qitg‘uvchisining bu ishni anglab joni-tani bilan bu ishni tezdan amalga oshirishga kirishmagi lozimdir. Bir nechadan o‘rgansalar va o‘rgatishga tayyorlasunlar. Shuning bilan birga, matbuot o‘z sahifasida yozib-ishlab borur. Umuman amaliy ishlarning eng muhimi shundan iboratdir.

To‘siqlar yo‘l bermasa

Albatta arabning tarafdorlari yo‘q emasdir. Diniy tomonda milliy tomonda ba’zan har ikki tomonda qolganlar ham bo‘lur. Dinchilarning aytadirgan so‘zlari, fikrlari bizga ma’lum. Ortiq ularning so‘ziga qulq soladirk‘on xech kim ham qolmadi. Bir vaqt yer islohoti tarafdorlari bo‘ldilar. Oyatlar axtarib, fatvolar chiqara boshladilar. Hammasi ham sababsiz bo‘lmadi, faqat yuruv-qolqlarnida tasdiq etdi. Biroq bu alifbo masalasida – bir vaqtlar islohotchilar qarshiliklarning ahamiyati yo‘qdir. Isloxotchilar qarshilikka uchragandek, lotin ham xoh yer ostida, xoh yer ustida qarshilikka uchragusudirlar. Biroq ularning qarshiliklarining ahamiyati yo‘qdir. Bu kun har ishda bo‘lsa-bo‘lsun mehnatkash xalqimiz ularni yaxshi tanig‘ondir. Xususan o‘qituvchilar bu guruhning naqadar buziqchi bo‘lganini yaxshi anglaydir.

Ikkinci aytganimizdek, millatchilar tomonidan bo‘ladurg‘on ba’zi qarshiliklardir. Masalan bu kun lotin alifbosini qabul qilsak milliy alifbo yo‘q bo‘ladir-dek. Bu taqdirda demakki bu masala millatning yashashigada, ta’sir etadir. Bu ahmoqona dalilga qarshi shuni aytmaqchimizki, bu kun lotinni qabul qilg‘on rus yohud nemislarning millati, milliy an’anasi yo‘q bo‘lur ekanda! Lotin alifbosini qabul qilish bilan eski, qari madaniyati yo‘qolur ekanda! Albatta bu dalil o‘rinsiz va ahmoqlikdir. Bu kun mehnatkashlarimiz baynalmilal madaniyatga erishmak uchun

tirishib turadir, kommunizm hayoti qurish tarixini o‘tkazadur. Bu maqsadga erishmak uchun buyuk-buyuk choralar ko‘rmak kerak. Eskidagi o‘ngg‘aysiz, qiyin va foydasizlarni ko‘tarib tashlab yaxshi tomonni tuzatish, yana yaxshilab borish kurashlari kerakdir. Lotin yo‘lidagi jarayon ham yozuvni qulay va o‘ngg‘ay qilish, foydali qilish yo‘lidagi jarayondir. Shubhasiz, yangi kuch ilgari surila bergen sayin, eskilarining o‘lib, kuchsizlanib bitganlaridek bu kun lotinga qarshi bo‘lg‘on asossiz kuchlar, kuchsiz dalillar ham o‘z-o‘zidan yo‘qola beradi.

Endi o‘qituvchilarimizning anglab, bu maydonda birinchi o‘rinda turib, amali choralar qidirib bu ishni ham muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda ilgari va markaz kuch bo‘lishlari lozimdir.

Rahim

Rahim Inomov. “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali.

1926 yil, №3, 5-7-betlar.